BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

MALLAYEV MUSLIM XUSHNAZAR O‘G‘LI

SURXON DAVLAT QO‘RIQXONASI YUKSAK O‘SIMLIKLAR MIKROMITSETLARI VA ASOSIY PATOGENLARINING O‘SIMLIKLARGA TA’SIRI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 581.2.582.28 (575.151)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Mallayev Muslim Xushnazar o‘g‘li
Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklar mikromitsetlari va asosiy patogenlarning o‘simliklarga ta’siri……..3

Маллаев Муслим Хушназар угли
Микромицеты высших растений Сурханского государственного заповедника и влияние основных патогенов на растения ……..…..... 21

Mallaev Muslim Khushnazar ogli
Micromycetes of vascular plants of the Surkhan state nature reserve and the influence of major pathogens on plants..... 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 44

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

MALLAYEV MUSLIM XUSHNAZAR O‘G‘LI

SURXON DAVLAT QO‘RIQXONASI YUKSAK O‘SIMLIKLAR MIKROMITSETLARI VA ASOSIY PATOGENLARINING O‘SIMLIKLARGA TA’SIRI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/B1544 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (resume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.botany.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot–ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Mustafayev Ilyor Muradullayevich** biologiya bo‘yicha falsafa fanlari doktori, (PhD)
Rasmiy opponentlar:	_____
	_____
Yetakchi tashkilot:	_____

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M raqamli Ilmiy kengashning 202_-yil “__” _____ kuni soat __ dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (__-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 20__-yil “___” kuni tarqatildi.
(20__-yil “__” _____ __-raqamli reyestr bayonnomasi).

K.Sh. Tojibayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

A.V. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., katta ilmiy xodim

H.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda respublika hududida 47 ta qo‘riqlanadigan tabiiy hudud mavjud bo‘lib, ular 6,32 mln gektar maydonni, ya’ni mamlakat hududining 14,02 foizini qamrab oladi. Ushbu hududlar biologik xilma-xillikni saqlashning muhim markazlari sifatida e’tirof etilib, ularda flora va fauna tarkibi keng o‘rganilgan hamda monitoring ishlari tizimli ravishda olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan umurtqali hayvonlarning 102 turi (83%) va o‘simliklarning 280 turi (89%) aynan shu hududlarda uchrashi qayd etilgan.

Biroq, aksariyat qo‘riqlanadigan hududlar mikobiotasi, xususan fitopatogen zamburug‘larning tarkibi va xilma-xilligi, ularning tarqalishi, xo‘jayin o‘simliklarga ta’siri hamda ekologik xavfi bo‘yicha tizimli monitoring ma’lumotlari yetarli emas. Mazkur muammolar Surxon davlat qo‘riqxonasida ham yaqqol namoyon bo‘lib, hudud mikobiotasini chuqur o‘rganish, fitopatogen turlarni aniqlash va ularning o‘simliklar bilan o‘zaro munosabatlarini ilmiy asosda baholash zaruratini belgilaydi.

Surxon davlat qo‘riqxonasi o‘zining murakkab geomorfologik tuzilishi, balandlik mintaqalari bo‘ylab keskin farqlanuvchi mikroiqlim sharoitlari hamda boy endemik va relikt o‘simliklar florasi bilan ajralib turadi. Bunday hududlarda o‘simlik–mikromitset o‘zaro munosabatlarini o‘rganish nafaqat fundamental mikologiya, balki ekologiya, fitopatologiya sohalari uchun ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qo‘riqxona florasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda 743 tur yuksak o‘simliklar qayd etilgan bo‘lib, ularning mikromitsetlar bilan trofik munosabatlari, patogen guruhlarning o‘simlik taksonlari bo‘yicha tarqalish xususiyatlari, ekotizimdagi roli va ekologik o‘ziga xosligi hali o‘rganilmaganligi mazkur yo‘nalishda ilmiy bo‘shliq mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, qo‘riqxona kabi muhofaza etiladigan yopiq tabiiy hududlarda patogen mikromitsetlarning latent (yashirin) rivojlanish xususiyati hamda xo‘jayin o‘simliklar bilan o‘ziga xos murakkab trofik aloqalar shakllantirishi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Mikromitsetlarning fitotsenoz barqarorligi va populyatsiyalar dinamikasiga ko‘rsatadigan ta’sirini baholash mintaqada olib boriladigan mikologik izlanishlarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarda ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasining “O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi[1] Qonuni – yuksak o‘simliklarda uchraydigan kasalliklar va patogen omillar monitoringini yuritishni talab qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-sonli 2030-yilgacha mo‘ljallangan atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi[2]– o‘simliklar kasalliklari va fitopatogen xavflarni baholashni ekologik ustuvor vazifa

[1] O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida Qonun 2016-yil 21-sentabrda qabul qilingan (№ O‘RQ-409-son).

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-sonli "2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni.

sifatida qayd etadi; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5995-sonli Farmoni[3] – ekologik xavfsizlikni ta’minlash, biologik xilma-xillik monitoringini kuchaytirish, qo‘riqxonalar faoliyatini takomillashtirish vazifalarini belgilaydi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar o‘simlik patogenlari, ularning ekologik xatti-harakati, tarqalish mexanizmlari va ularning tabiiy ekotizimlarga salbiy ta’sirini o‘rganish jarayonini davlat darajasida qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatadi. Ayniqsa, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarda fitopatogen zamburug‘larning monitoringi, ularning o‘simlik jamoalari barqarorligiga ta’siri va ekologik xavfsizlikka bog‘liq jarayonlarni ilmiy asosda baholash hozirgi ekologik siyosatning ajralmas qismidir. Shu bois Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklar mikromitsetlari va asosiy patogenlarning o‘simliklarga ta’siri mavzusini bugungi kunda dolzarb, ilmiy jihatdan asosli va yuqori amaliy ahamiyatga ega tadqiqot sifatida belgilab beradi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V.“Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijda yuksak o‘simliklar mikromitsetlarining xilma-xilligi, tarqalishi, xo‘jayin o‘simliklari va ekologiyasiga oid tadqiqotlar U. Braun & R.T. Cook (2012) F.G. Noguez (2014), D. Dutta et al. (2014), L.I. Adamska (2019) , K.M. Pollard et al. (2020), Wang et al. (2021), M. Avan (2021), P. Zhao et al. (2021), S. Fraser et al. (2021), Y. Ono et al. (2021), M.K. Adhikari (2022), D.W. Bean et al. (2024) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

MDH mamlakatlarida E.B. Рахимова (2017), M.A. Томошевич и др. (2017), A.M. Бексултанова (2019), A.И. Насонов (2019) va boshqalar tomonidan yuksak o‘simliklar mikromitsetlarning taksonomiyasi, bioekologik xususiyatlari va ular keltirib chiqaradigan kasalliklarga qarshi kurash choralari hamda turli monitoringlarni amalga oshirgan.

O‘zbekistonda bu kabi tadqiqotlar H.Г. Запрометов (1926-1928), П.Н. Головин (1941), Т.К. Роткевич (1960), Г.Т. Баймуратова (1963), Т.С. Панфилова (1963), Н.И. Гапоненко (1965), Ф.Г. Ахмедова (1966), С.С. Рамазанова (1975), Я.С. Солиева (1989), Я.С. Солиева и др. (1998), Ш.Г. Камилов (1991), Х.Х. Нуралиев (1998), Ю.Ш. Гаффоров (2004), И.М. Мустафаев (2018), Ж.П. Шеркулова (2018), A.A. Abdurazakov va boshq. (2021), I.Z. Ortiqov (2023), D.G‘. Sodiqova (2024), G. Norimova va boshq. (2024), Sh.U. Mardonov (2025) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mavjud ilmiy tadqiqotlar Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklar mikromitsetlarining haqiqiy taksonomik tarkibi, ekologik o‘rni, trofik munosabatlari va patogenlik potensialini to‘laqonli yoritib bera olmaydi. Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklar mikromitsetlarini o‘rganish hududning biologik xilma-xilligini saqlash, tabiiy ekotizimlar barqarorligini

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi PF–5995-son – “atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risi”da Farmoni.

ta’minlash va fitosanitar xavfsizlikni mustahkamlash nuqtayi nazaridan ham muhim amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № 2.7 — yuksak o‘simliklar mikromitsetlari (2022-2025-yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklar mikromitsetlari biotasining taksonomik tarkibini aniqlash va patogen guruhlarning xo‘jayin o‘simliklarga ta’sirini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklar mikromitsetlari tur tarkibini aniqlash va taksonomik tahlil qilish;

Surxon davlat qo‘riqxonasi mikromitsetlari biotasini qiyosiy tahlil qilish;

mikromitsetlarning o‘simlik taksonlari bo‘yicha tarqalishini baholash;

mikromitsetlarning trofik tuzulmasini aniqlash va tahlil qilish;

mikromitsetlarning balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi va mavsumiy rivojlanish qonuniyatlarini asoslash;

asosiy patogen guruhlari bo‘yicha o‘simliklarning kasallanish darajasini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklar mikromitsetlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Surxon davlat qo‘riqxonasi mikromitsetlarining taksonomiyasi, mavsumiy rivojlanishi va balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi hamda o‘simliklarning zararlanish darajalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda marshrutli dala kuzatuvlari, mikologik va mikroskopik analiz, fitopatologik tekshiruvlar, morfologik tahlil, qiyosiy tahlillar, zararlanish darajalarini aniqlash va baholashning standart uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklarida mikromitsetlarning 3 bo‘lim 9 sinf 24 tartib 44 oila 84 turkumiga mansub 249 tur 18 forma va 2 variatsiya aniqlangan;

aniqlangan mikromitsetlarining barchasi tadqiqot hududi uchun, 12 turi esa O‘zbekiston mikobiotasi uchun ilk bor qayd etilgan;

mikromitsetlarning balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi hamda mavsumiy rivojlanishi ochib berilgan;

mikromitsetlarning 13 turkumga mansub 19 turi yangi xo‘jayin o‘simliklarida uchrashi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklarida aniqlangan mikromitsetlarning 84 turkumiga mansub 269 turiga oid mikologik gerbariy namunalari TASM mikologik kolleksiyasiga topshirildi.

Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklarida qayd etilgan mikromitsetlarning 51 turkumiga mansub 123 turiga oid 268 ta mikologik gerbariy namunalari

xalqaro Global Biodiversity Information Facility (GBIF) platformasiga joylashtirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda yig‘ilgan mikologik gerbariy namunalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutining Mikologik gerbariy (TASM) ilmiy noyob ob’yekti fondida saqlanayotgan namunalar bilan solishtirilganligi, laboratoriya va dala tadqiqotlarida zamonaviy uslublardan foydalanilganligi, olingan natijalarni respublika, xalqaro anjumanlarda muhokama qilinganligi va yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, tadqiqotning amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi hamda mikologik gerbariy namunalari Botanika instituti Mikologik gerbariy (TASM) fondida saqlanayotganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklarida tarqalgan mikromitsetlarning taksonomik tarkibini aniqlanganligi, O‘zbekiston mikobiotasi uchun yangi mikromitset turlari va yangi xo‘jayin o‘simliklarining qayd etilganligi, mikromitsetlarning mavsumiy rivojlanishi, balandlik mintaqalari, xo‘jayin o‘simlik turlari, turkumlari va oilalarida tarqalishi asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati qo‘riqxona florasiga mansub yuksak o‘simliklarida mikromitsetlar keltirib chiqaradigan kasalliklarni aniqlash va kasallanish darajalarini baholash imkonini beradi. Olingan ma’lumotlar hududning mikologik monitoring bazasini shakllantirishga hamda o‘simliklar fitosanitar holatini nazorat qilishga qaratilgan istiqbolli ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Surxon davlat qo‘riqxonasi hududida olib borilgan mikologik tadqiqotlardan olingan natijalar asosida:

Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklari mikromitsetlarining taksonomik tarkibi aniqlangan va O‘zR FA Botanika instituti Mikologik gerbariysi (TASM) fondiga mikologik gerbariy namunalari topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasning 2025-yil 21-noyabrdagi 4/1255-2932- sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklaridan yig‘ilgan mikologik gerbariy namunalari noyob ob’yekt fondini boyitgan va O‘zbekistonning muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarida tarqalgan mikromitsetlarning elektron ma’lumotlar bazasini boyitish imkonini bergan.

Surxon davlat qo‘riqxonasi hududidan mikromitsetlarning 268 ta mikologik gerbariy namunalari tahlili natijasida olingan ma’lumotlar xalqaro “Bioxilma-xillik bo‘yicha ma’lumotlar global tizimi”ga kiritilgan (GBIF, www.gbif.org, 2025-yil 30-sentabrdagi 057-sonli guvohnomasi). Natijada, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda uchraydigan yuksak o‘simliklar mikromitsetlarining xalqaro ma’lumotlar elektron bazasini shakllantirish va monitoringini amalga oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ishlar nashr etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik

dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betdan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mikologik tadqiqotlarning hozirgi holati”** deb nomlangan birinchi bobida mikologik tadqiqotlarning qisqacha sharhi, tadqiqot metodlarining qo‘llanilishi, Surxon davlat qo‘riqxonasining qisqacha tabiiy-geografik tavsifi yoritilgan. Bobning birinchi bo‘limida yuksak o‘simliklar mikromitsetlari bo‘yicha xorijiy va mahalliy ilmiy-tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan. Xorijda jumladan, zamburug‘lar olamining asosiy guruhlari bo‘yicha klassifikatsiyalar (Hyde et al., 2013; Li et al., 2020; Wijayawardene et al., 2017, 2018, 2020; He et al., 2019; Hyde et al., 2020), “Fungal Diversity Notes” va “Mycosphere Notes” asarlarida har birida 50 va undan ortiq takson, shu jumladan fanga yangi kiritilgan turlar, Markaziy Osiyo, xususan Qozog‘iston hududida mikromitsetlarning biologik xilma-xilligi (Nam et al., 2014; Rakhimova et al., 2015, 2020, 2022; Sypabekkysy et al., 2018, 2020), Qirg‘izistonda (Bilder, 2006; Beksultanova & Mosolova, 2020), O‘zbekistonda esa П.Н. Головин (1935–1945), Н.И. Гапоненко (1954), Б.Д. Клейнер (1958), Т.К. Роткевич (1960), Т.С. Панфилова и др. (1963), Ф.Г. Ахмедова (1965), Я.С. Салиева (1989), Ш.Г. Камилов (1991), Х.Х. Нуралиев (1998), Ю.Ш. Гаффоров (2004), И.М. Мустафаев (2018), Ж.П. Шеркулова (2018), I.Z. Ortiqov (2023), D.G‘. Sodiqova (2024) va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari yoritilgan.

Bobning ikkinchi bo‘limida tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan tadqiqot uslublari, bobning uchinchi bo‘limida Surxon davlat qo‘riqxonasining tabiiy-geografik tavsifi va o‘simliklar dunyosi haqida ma’lumotlar berilgan. Surxon davlat qo‘riqxonasi Ko‘hitang tizmasining sharqiy yon bag‘rida, Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani hududida, g‘arbiy chekkasi Turkmaniston bilan tutashgan holda joylashgan. Umumiy maydoni 23 802 gektar bo‘lib, shundan 12 240 gektari o‘rmon bilan qoplangan. Qo‘riqxona 7 bo‘lim, 10 aylanma va 14 kvartalga bo‘lingan, balandligi 850–3137 m oralig‘ida. Florasi 77 oila, 372 turkum va 747 turdan iborat bo‘lib, Asteraceae, Fabaceae va Poaceae oilalari asosiy ulushni tashkil qiladi. Hudud Ko‘hitang tizmasi uchun floristik jihatdan kalit hudud hisoblanadi va Janubi-G‘arbiy Hisor okrugi florasining 40,3 %, tizmada uchraydigan turlarning 74,7 % ini qamrab oladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklar mikromitsetlarining taksonomik tahlili”** deb nomlanib to‘rt bo‘limdan iborat.

Surxon davlat qo‘riqxonasida olib borilgan mikologik tadqiqotlar natijasida yuksak o‘simliklarda 3 bo‘lim, 9 sinf, 24 tartib, 44 oila, 84 turkumga mansub 249 tur, 18 forma va 2 variatsiyasi aniqlandi (1-jadval).


1-jadval

Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklar mikromitsetlarining taksonomik tarkibi

Bo‘lim	**Taksonlar soni**						
	sinf	**tartib**	**oila**	**turkum**	**tur**	**forma**	**variatsiya**
Ascomycota	5	18	34	68	172	18	2
Basidiomycota	3	4	8	11	67	–	–
Oomycota	1	2	2	5	10	–	–
Jami:	**9**	**24**	**44**	**84**	**249**	**18**	**2**

Ascomycota bo‘limi 172 tur 18 forma va 2 variatsiyasi bilan umumiy aniqlangan mikromitsetlarning 71,37 % ini, Basidiomycota bo‘limi 67 tur 24,9 % ini, Oomycota bo‘limi 10 tur bilan aniqlangan zamburug‘ turlarining 3,71 % ini tashkil etishi qayd etildi.

Bobning birinchi bo‘limida Ascomycota bo‘limiga mansub patogen mikromitsetlarning taksonomik tahlili amalga oshirilib, aniqlangan 5 sinf, 18 tartib, 34 oila, 68 turkum, 172 tur, 18 forma va 2 variatsiyaga mansub mikromitsetlar tadqiqot hududida aniqlangan mikometsetlarni 71,37 % tashkil qildi (1-rasm).



1-rasm. Mikromitset turlarining bo‘limlar bo‘yicha taqsimlanishi (turlar soni; foizdagi ifodasi)

Olib borilgan mikologik tahlillarga ko‘ra, Dothideomycetes sinfi 7 tartib 18 oila 37 turkum 118 turdan iborat bo‘lib, Ascomycota turlarining 61,25 % ini, jami aniqlangan turlarning 43,65 % ini, Leotiomycetes sinfi 3 tartib 6 oila 15 turkum 52 tur (18 forma, 2 variatsiya) mos ravishda 27,22 % ga 19,4 % ni tashkil etadi, Sordariomycetes sinfi 6 tartib 8 oila 10 turkum 16 tur 8,37 % ga 5,97 % ni, Taphrinomycetes sinfi 1 tur bilan 0,52 % ga 0,37 % ni tashkil etdi. Tartiblar bo‘yicha tahlil qilinganda Pleosporales tartibida 20 turkum 59 tur, Helotiales – 12 turkum 49 tur (18 forma va 2 variatsiya), Mycosphaerellales – 5 turkum 29 tur bilan yetakchilik qilishi ma’lum bo‘ldi. Keyingi o‘rinlarda Botryosphaeriales – 5 turkum/18 tur,

Diaporthales – 3/8 tur, Incertae sedis – 7/8, Cladosporiales – 2/7, Phyllachorales – 3/3, Venturiales, Dothideales, Rhytismatales tartiblari har biri – 2/2, Lecanorales, Taphrinales, Amphisphaeriales, Hypocreales, Xylariales tartiblari har birida – 1/1 iborat. Mikromitset turlarining oilalardagi o‘rtacha soni 5,61 ga teng. Turlar soni o‘rtachadan yuqori bo‘lgan yetakchi oilalarga Erysiphaceae – 47 tur (18 forma, 2 variatsiya), Mycosphaerellaceae – 30, Pleosporaceae – 22, Didymellaceae – 16, Phyllostictaceae – 12, Incertae sedis – 9, Camarosporiaceae – 7, Cladosporiaceae – 7, Cytosporaceae – 6 kiritildi. Yetakchi oilalarning umumiy turlar soni 156 ta bo‘lib umumiy turlarning 81,67 % ini tashkil etdi. Turlar soni o‘rtachadan past oilalarga Botryosphaeriaceae – 4 tur, Leptosphaeriaceae, Phyllachoraceae, Phaeosphaeriaceae, Sclerotiniaceae oilalari har birida – 3 turdan, Diademaceae, Drepanopezizaceae, Rhytismataceae, Venturiaceae oilalari har birida – 2 turdan va qolgan Amniculicolaceae, Apiosporaceae, Dothideaceae, Diaporthaceae, Gnomoniaceae, Heterodeaceae, Hyponectriaceae, Lophiostomataceae, Melanommataceae, Nectriaceae, Ploettnerulaceae, Polystomellaceae, Saccotheciaceae, Taphrinaceae oilalari har birida 1 turdan kirishi aniqlandi.

Turkumlar kesimida turlar sonining o‘rtacha qiymati 2,8 ga teng. *Ramularia* – 14 tur, *Leveillula* – 14 (10 forma), *Pleospora* – 13, *Septoria* – 12, *Phoma* – 11, *Erysiphe* – 11 (5 forma va 1 variatsiya), *Phyllosticta* – 10, *Camarosporium* – 7, *Cladosporium* va *Cytospora* turkumlari 6 tadan, *Pyrenophora*, *Phyllactinia* va *Podosphaera* turkumlari har birida 5 tadan, *Diplodia, Alternaria, Leptosphaeria, Ascochyta, Sphaerotheca* va *Monilinia* turkumlari har biri 3 tadan turni o‘z ichiga olishi bilan yetakchi turkumlar sifatida qayd etildi. Ushbu turkumlar jami 139 ta turni o‘z ichiga oladi va umumiy mikromitsetlar xilma-xilligida asosiy ulushni – 51,67 % ini tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkich, ushbu turkumlar vakillarining xo‘jayin o‘simliklari bilan o‘ziga xos keng ekologik aloqalarga ega ekanligini, hamda ularning evolyutsion moslashuvchanligi yuqori darajada shakllanganini ko‘rsatadi. *Leveillula, Erysiphe, Septoria, Phyllosticta, Ramularia, Pleospora* va *Phoma* kabi turkumlari aniqlandi va bu holat O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekistonning tog‘li hududlari mikobiotalariga xos xususiyat sifatida baholandi.

Bobning ikkinchi bo‘limi – “Basidiomycota bo‘limining taksonomik tahlili” deb nomlanadi. Basidiomycota bo‘limidan 3 sinf, 4 tartib, 8 oila va 11 turkumga mansub 67 tur aniqlandi (2-jadval).

Aniqlangan turlarni sinflar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, Pucciniomycetes – 1 tartib, 4 oila, 6 turkum va 59 turdan iborat bo‘lib, ular tadqiqot doirasida aniqlangan jami turlarning 21,93 % ini hamda Basidiomycota bo‘limi tarkibidagi turlarning 88,05 % ini tashkil etadi. Ustilaginomycetes – 2 tartib, 3 oila, 4 turkumga mansub 7 turdan iborat bo‘lib, umumiy mikromitsetlar xilma-xilligining 2,6 % ini, Basidiomycota bo‘limi doirasidagi turlarning esa 10,44 % ini tashkil qiladi. Exobasidiomycetes – 1 tartib, 1 oila, 1 turkumga mansub yagona tur bilan cheklanadi.


Basidiomycota bo‘limiga mansub turlar jami 8 oilada taqsimlanganligi va ushbu oilalarda turlarning o‘rtacha soni 8,3 ga teng ekanligi aniqlandi. Turlar soni jihatdan o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkich 46 tur bilan Pucciniaceae oilasida qayd etildi hamda umumiy turlarning 17,1 % ini tashkil etdi. Navbatdagi o‘rinlarni

Phragmidiaceae – 8 tur, Ustilaginaceae – 5, Melampsoraceae – 3, Gymnosporangiaceae – 2, Anthracoideaceae, Urocystidaceae, Tillatiaceae oilalari har birida – 1 turni o‘z ichiga olganligi qayd qilindi (2-rasm).

2-jadval

Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklarida aniqlangan Basidiomycota bo‘limi turlarining taksonomik tahlili

№	Sinf	Tartib	Oila	Turkum	Tur
1	Pucciniomycetes	Pucciniales	Pucciniaceae	*Puccinia*	33
				Aecidium	2
				Uromyces	11
			Gymnosporangiaceae	*Gymnosporangium*	2
			Phragmidiaceae	*Phragmidium*	8
			Melampsoraceae	*Melampsora*	3
2	Ustilaginomycetes	Ustilaginales	Ustilaginaceae	*Ustilago*	4
				Tranzscheliella	1
			Anthracoideaceae	*Anthracoidea*	1
		Urocystidales	Urocystidaceae	*Urocystis*	1
3	Exobasidiomycetes	Tilletiales	Tilletiaceae	*Tilletia*	1
	3 sinf	**4 tartib**	**8 oila**	**11 turkum**	**67**



2-rasm. Oilalarda turlar sonining miqdoriy ko‘rsatkichi

Basidiomycota bo‘limi turkumlarida aniqlangan turlarning o‘rtacha soni 6,09 ga teng. Turlar soni o‘rtachadan yuqori bo‘lgan ko‘rsatkich *Puccinia* – 33 tur, *Uromyces* – 11, *Phragmidium* – 8 tur kuzatildi. Bu yetakchi turkumlar turlari yig‘indisi 52 tur bilan aniqlangan Basidiomycota bo‘limi turlarining 77,61 % ini, umumiy mikromitsetlarning 19,33 % ini tashkil etdi. Qolgan turkumlarda *Ustilago* – 4, *Melampsora* – 3, *Aecidium* – 2, *Gymnosporangium* – 2, *Anthracoidea* – 1, *Urocystis* – 1, *Tranzscheliella* – 1, *Tilletia* – 1 tur uchrashi aniqlandi. Zang

kasalligini keltirib chiqaruvchi zamburug‘lar orasida *Puccinia* turkumi vakillarining yetakchilik qilishi Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekistonning tog‘li hududlarida olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan bo‘lib, ushbu tendensiya bizning tadqiqot natijalarimizda ham tasdiqlandi.

Bobning uchinchi bo‘limi “Oomycota bo‘limining taksonomik tahlili” deb nomlangan bo‘lib, Oomycota bo‘limidan 1 sinf 2 tartib 2 oila 5 turkum 10 turga mansub mikromitsetlar aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklarida aniqlangan Oomycota bo‘limi turlarining taksonomik tahlili

№	Sinf	Tartib	Oila	Turkum	Tur
1	Peronosporo-mycetes	Peronosporales	Peronosporaceae	*Peronospora*	5
				Bremia	1
				Hyaloperonospora	2
		Albuginales	Albuginaceae	*Albugo*	1
				Pustula	1
	1	**2**	**2**	**5**	**10**

Mazkur 10 tur, umumiy aniqlangan mikromitsetlar xilma-xilligining atigi 3,71 % ini tashkil etadi. Ushbu bo‘lim vakillarining kam uchrashini hududning keskin kontinental iqlimi bilan izohlanib, bunday sharoit Oomitset sporalarining o‘sishi va tarqalishiga cheklovchi omil sifatida baholanishi mumkin.


Bobning to‘rtinchi bo‘limida O‘zbekiston mikobiotasi uchun yangi zamburug‘ turlari bo‘yicha ma’lumotlar berilgan. Tadqiqot hududidan yig‘ilgan mikologik gerbariy namunalarini o‘rganish hamda sohaga oid monografiya va ilmiy manbalarni solishtirma tahlil qilish natijasida mikromitsetlarning 12 turi O‘zbekiston mikobiotasi uchun ilk bor aniqlangan (4-jadval).

4-jadval

O‘zbekiston mikobiotasi uchun yangi mikromitset turlari

№	Xo’jayin o’simlik turi	Yangi mikromitset turi
1	*Acer pentapomicum*	*Cytospora acericola*
2	*Artemisia* sp.	*Pleospora artemisiae*
3	*Capparis spinosa*	*Phoma capparis*
		Diplodia capparis
4	*Celtis caucasica*	*Cytospora celtidis*
5	*Fritillaria bucharica*	*Puccinia hsinganensis*
6	*Juncus inflexus*	*Arthrinium cuspidatum*
7	*Origanum vulgare* subsp. *gracile*	*Ramularia* sp.
		Phyllosticta origani
8	*Onosma dichroantha*	*Phyllosticta onosmatis*
9	*Phragmites australis*	*Scirrhia rimosa*
10	*Rubus pseudojaponicus*	*Phoma rubicola*

Ushbu yangi turlar ichida zang kasaligini qo‘zg‘atuvchi obligat parazit *Puccinia hsinganensis* ning bo‘lishi diqqatga sazavor (3-rasm).



3-rasm. *Puccinia hsinganensis*: A – Surxon davlat qo‘riqxonasida *Fritillaria bucharica* tarqalish nuqtalari, B, C – kasallangan o‘simlik va gerbariy namunasi, D,E,F – zamburug‘ning uredosporalari.

Dissertatsiyaning uchinchi “**Surxon davlat qo‘riqxonasi mikromitsetlar biotasining qiyosiy tahlili**” deb nomlangan bobida tadqiqot hududi yuksak o‘simliklar mikromitsetlari biotasi Zominsuv havzasi, Nurota qo‘riqxonasi, Surxondaryo viloyati va Bobotog‘ milliy tabiat bog‘i yuksak o‘simliklar biotalari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Qiyoslash jarayonida turli hududlarda qayd etilgan mikromitsetlar tarkibi, yetakchi turkum va turlar bo‘yicha tahlil qilinib, ularning tarqalish qonuniyatlari, o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi (5-jadval).

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklar mikromitsetlari biotasining eng yuqori o‘xshashligi Nurota qo‘riqxonasi bilan kuzatiladi. Jakkard koeffitsienti bo‘yicha turkumlarda o‘xshashlik 50,5% ni, turlarda esa 29,3% ni tashkil etgan, Sorensen-Czekanovskiy koeffitsienti bo‘yicha esa turkumlarda 67,1%, turlarda 45,4% ni tashkil qilgan. Kulchinskiy va Stogran-Radulesku koeffitsientlari ham shunga yaqin natijalarni ko‘rsatdi. Surxon davlat qo‘riqxonasi mikobiotasi va Nurota qo‘riqxonasi mikobiotasi o‘rtasidagi o‘xshashlik yuqori bo‘lishining asosiy sababi floralar va dominant turkumlarning umumiyligi, shuningdek, hududlarning tabiiy-geografik sharoitlaridagi yaqinlikdir. Ushbu natijalar mikromitsetlarning rivojlanishi hamda mikobiota tarkibining shakllanishida flora va o‘simliklar qoplamining yetakchi ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

5-jadval

Taqqoslanayotgan hududlarning o‘xshashlik koeffitsientlari

Taqqoslash koeffitsientlari (% hisobida)		Taqqoslanayotgan hududlar							
		Zominsuv havzasi		Nurota qo‘riqxonasi		Surxondaryo viloyati		Bobotog‘ milliy tabiat bog‘i	
		O‘xshash	Farq	O‘xshash	Farq	O‘xshash	Farq	O‘xshash	Farq
Jakkard	Turkum	41,6	58,4	50,5	49,5	35,5	64,5	35,9	64,1
	Turlar	18,8	81,2	29,3	70,7	23,5	76,5	22,8	77,2
Sorensen-Czekanovskiy	Turkum	58,8	41,2	67,1	32,9	52,4	47,6	52,8	47,2
	Turlar	31,6	68,4	45,4	54,6	38	62	37,1	62,9
Kulchinskiy	Turkum	58,9	41,1	67,1	32,9	52,5	47,5	59.9	40,1
	Turlar	31,9	68,1	45,5	54,5	38,3	61,7	39,2	60,8
Stogran - Radulesku	Turkum	58,8	41,2	67,1	32,9	52,5	47,5	56,2	43,8
	Turlar	31,8	68,2	45,4	54,6	38,2	61,8	38,1	61,9

Dissertatsiyaning to‘rtinchi **“Surxon davlat qo’riqxonasi yuksak o‘simliklar mikromitsetlarining ekologiyasi”** deb nomlangan bobi 5 bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi “Mikromitsetlarning yuksak o‘simlik taksonlari bo‘yicha tarqalishi” bo‘limida qo‘riqxona hududidan aniqlangan 249 tur 18 forma 2 variatsiyaga mansub mikromitsetlar yuksak o‘simliklarning 45 oila, 123 turkum, 210 turida tarqalganligi keltirilgan. Tahlillarga ko‘ra, o‘rtacha tarqalish ko‘rsatkichi har bir o‘simlik turiga 1,27 tur mikromitset to‘g‘ri keladi. Xo‘jayin o‘simliklar *Ferula kuhistanica* va *Lonicera nummulariifolia* larning har birida 9 turdan (umumiy aniqlangan mikromitsetlarning 3,35 %), *Acer pentapomicum, Medicago sativa, Astragalus dissectus, Prunus bucharica, Rosa ecae, Morus alba* larda 5-6 turdan, *Alhagi pseudalhagi* subsp. *kirghisorum*, *Astragalus subverticillatus*, *Asperula pauciflora*, *Crataegus turkestanica*, *Convolvulus arvensis*, *Centaurea virgata* subsp. *squarrosa*, *Cynodon dactylon*, *Ephedra equisetina*, *Geum kokanicum*, *Hypericum scabrum*, *Hordeum bulbosum, Malus* sp*., Morus alba*, *Origanum vulgare* subsp. *gracile*, *Plantago lanceolata*, *Populus alba*, *Poa bulbosa*, *Pyrus regelii*, *Pistacia vera*, *Rosa canina* larda 3-4 turdan, qolgan o‘simlik turlarida 1-2 turdagi mikromitsetlar aniqlandi. Bundan tashqari, 64 tur yuksak o‘simlikda mikromitsetlar soni o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori ekanligi qayd etilgan. Mikromitsetlar 123 turkumga mansub xo‘jayin o‘simliklarda tarqalgani aniqlandi. O‘simlik turkumlarida mikromitsetlarning o‘rtacha soni 2,18 ga to‘g‘ri keladi. Shundan, 36 turkum vakillarida zamburug‘larning soni o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori. Tahlillarda 4-17 turgacha mikromitsetlar aniqlangan turkumlar yetakchi turkumlar sifatida baholandi. Ular ichida eng yuqori ko‘rsatkich 17 tur (umumiy mikromitsetlarning 6,34 %) bilan *Astragalus* turkumi vakillarida qayd etildi, *Ferula* – 10 (3,73 %) *Lonicera* – 9 (3,35 %), *Hordeum* va *Rosa* – 7 (2,61), *Prunus* va *Poa* – 6 (2,23 %), *Acer, Ranunculus, Medicago, Hypericum, Geranium, Atraphaxis* turkumlarining har birida – 5 turdan (1,86 %), *Allium, Artemisia, Bromus, Centaurea, Cynodon, Plantago, Pyrus,* turkumlarida har birida – 4 turdan (1,49 %) ni tashkil etdi. Surxon davlat qo‘riqxonasi hududida tarqalgan mikromitsetlar 45 oilaga mansub xo‘jayin o‘simliklarida tarqalgan bo‘lib, o‘simlik oilalarida mikromitset turlarining o‘rtacha soni 5,97 ga, mikromitset turkumlarining o‘rtacha soni esa 1,86 ga to‘g‘ri keladi.

Mikromitset turlarining o‘simlik oilalar kesimida tarqalishini o‘rtacha qiymatidan yuqori ko‘rsatgich 12 oilada (6-40) bo‘lib, umumiy mikromitsetlarning (72,39%) ni tashkil etdi. 33 oilada esa turlar soni o‘rtachadan past 1-5 ko‘rsatkich qayd etildi. Yetakchi oilalar sifatida Asteraceae – 31 tur (11,57 %), Rosaceae – 30 (11,19 %), Fabaceae – 26 (9,70 %), Poaceae – 26 (9,70 %) qayd etildi. O‘simlik oilalarida mikromitset turkumlarining tarqalishiga ko‘ra Poaceae, Fabaceae, Rosaceae, Asteraceae, Lamiaceae, Caprifoliaceae oilalari ustunlik qilib ularda 10-20 mikromitset turkumlarini o‘z ichiga olgan. Bu holatni yuqorida keltirilgan o‘simlik oilalariga mansub turlarning Surxon davlat qo‘riqxonasi florasida juda keng tarqalganligi bilan izohlash mumkin. Shunday qilib, Surxon davlat qo‘riqxonasi hududida olib borilgan mikologik tadqiqotlar natijasida mikromitsetlarning yuqori darajadagi xilma-xilligi va ularning xo‘jayin o‘simliklar bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi. Jami 249 tur, 18 forma va 2 variatsiyaga mansub mikromitsetlar 45 oila, 123 turkum va 210 tur yuksak o‘simliklarda tarqalgan bo‘lib, bu holat hududni ayniqsa fitopatogen mikromitsetlar uchun qulay ekologik sharoitga ega ekanligini ko‘rsatadi. Mikromitsetlarning o‘rtacha tarqalish ko‘rsatkichi har bir o‘simlik turiga 1,27 tur to‘g‘ri kelishi bilan ifodalanib, ayrim xo‘jayin o‘simliklar, turkumlar va oilalarda bu ko‘rsatkich sezilarli darajada yuqori ekanligi qayd etildi. *Astragalus, Ferula, Lonicera, Rosa* kabi turkumlar hamda Asteraceae, Rosaceae, Fabaceae va Poaceae oilalarining yetakchi o‘rni ularning floristik tarkibdagi keng tarqalganligi bilan izohlanadi. Umuman olganda, olingan natijalar Surxon davlat qo‘riqxonasi florasida mikromitsetlarning xilma-xilligi yuqori bo‘lib, ular o‘simliklar fitosanitar holatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

